Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Oktabr
№10, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNALI

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 1107 sahifa.
2026-yil, №10. oktabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

KONSTANTIN IVANOVICH KURPAYANIDI
Green energy transition in Central Asia: capacity growth, technological diversification and system constraints.....11
TURSUNKULOVA GULCHIROY BURXONOVNA
Meva-sabzavotchilik korxonalarida biologik aktivlarni hisobga olishni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....24
MO‘MINOV ABDUVALI AKBARALIEVICH, DJO‘RAEV MUQIMJON YAQUBJONOVICH
Tritikale seleksiyasida molekulyar markerlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi: QTL, SSR, SNP va KASP yondashuvlari asosida.....30
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq yetishtirishda oqqanotga qarshi kimyoviy himoya tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....43
SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH
Valyuta kursi tebranishlari indeksini hisoblash va baholash.....53
KARIMOV NURBEK DEXKANOVICH
Yeryong‘oq ekinlarida o‘rgimchak kanaga qarshi kimyoviy kurash choralarining iqtisodiy samaradorligini baholash.....63
SHOMURODOV TOHIR BOYMUROD O‘G‘LI
Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda aholi daromadlarining o‘rni haqidagi nazariy yondashuvlar.....73
МУСТАФОКУЛОВА ЗАРИФА
Сравнительный анализ лидерства в условиях кризиса и роль молодых лидеров в развитии.....80
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarining iqtisodiy mohiyati, mazmuni va tasnifi.....87
RAXIMJONOVA SHOHSANAM BAXODIROVNA
Davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy soha infratuzilmasini rivojlantirishda "Value for Money" (VfM) baholash mexanizmini takomillashtirish.....95
QURBANOVA OYDIN TO‘LQIN QIZI
Ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini baholashning integral ko‘rsatkichini shakllantirish.....101
SADIKOVA SHOHIDA OBIDQUL QIZI
O‘zbekistonda piyoz yetishtirishning iqtisodiy o‘rni va samaradorligi.....108
XAKIMOV RASHID
Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rni va samaradorligi.....119
TOJIMATOV IZZATBEK IKROMALI O‘G‘LI
Don mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida intellektual marketing strategiyasini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....133
SODIQOVA GAVHAR XAYRULLA QIZI
Xodimlarni boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....142
ERGASHEV ASADBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI, TURSUNOV G‘IYOS SUNNAT O‘G‘LI
Meva-sabzavotlarni qayta ishlashda hosil bo‘ladigan ikkilamchi resurslarni biotexnologik qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish.....148

RASULOV XAMIDJON YAKUBOVICH
Raqamli texnologiyalar va CRM tizimlarining kichik biznesdagi o‘rni.....155
BOZOROVA MUHABBAT TOXTAYEVNA
Korxonalarda davr xarajatlarini buxgalteriya hisobini tashkil etish va uning tahlili.....168
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini ekonometrik baholash.....185
YULDASHOV ABDUMALIK ILXOMOVICH
Ekoturizmning hududiy iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholashning nazariy-metodologik asoslari.....192
MUHAMMADIEV NAUFALBEK AZIZXON O‘G‘LI
Elektron tijoratda sun’iy intellektdan foydalanishning kichik biznes savdo hajmiga ta’siri.....202
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ
Процедура нормирования частных показателей при оценке ресурсного потенциала аграрного сектора: сравнительный анализ методов и обоснование выбора.....210
XASANOVA RUXSORA RASULJON QIZI
O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirishning hududiy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligini oshirish.....223
UMAROVA XUSNORA DILMUROD QIZI
Orolbo‘yi mintaqasida xizmat ko‘rsatish korxonalarini moslashuvchan (adaptiv) boshqarishning ma’lumotlarga asoslangan modelini takomillashtirish.....229
АБДУЛЛАЕВ АКМАЛЖОН АБДУЖАЛИЛОВИЧ, ХОЛБЕКОВ ЖУРЪАТ АБДИНАБИЕВИЧ
Теоретико-методологические основы оценки ресурсного потенциала аграрного сектора: концептуальный подход и методика интегральной оценки.....234
UMARALIYEV DIYORBEK SHUKIRALI O‘G‘LI
Tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishning fermer xo‘jaliklari xarajat va daromadlariga ta’siri: subsidiya samaradorligining iqtisodiy bahosi (2019–2025 yillar).....247
MIRAXMEDOVA KAMOLA
O‘zbekistonda turizm korxonalarini strategik boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....254
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
O‘zbekistonning xalqaro soliq tizimiga integratsiyasi: BEPS minimum standartlari va ularning milliy soliq siyosatidagi ahamiyati.....261
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Anor yetishtirish va sotish qiymat zanjirida ishtirokchilarning daromadlari ulushini iqtisodiy baholash.....274
BAXADIR ADILCHAEV
Agroturizm qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va hududlarning barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....283
XO‘JAMOVA LATOFAT ASADULLAEVNA
Yashil iqtisodiyot sharoitida agrobiznesda innovatsion jarayonlarni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari.....290
BOZOROV BOBUR HAQBERDIYEVICH
Qurilishni moliyalashtirish samaradorligiga narx omillarining ta’sirini ekonometrik baholash.....297
RAVSHANOVA ORZIGUL INOYAT QIZI
Chegaralararo soliq munosabatlari: muammolar va rivojlanish istiqbollari.....307

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
O‘zbekiston kimyo sanoati aksiyadorlik jamiyatlarida mavsumiylikning moliyaviy barqarorlikka ta’siri: panel tahlil (2018–2026-yillar)……322
IRGASHEV ABBOS JUMANAZAROVICH
Surxondaryo viloyatida anor ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirish imkoniyatlari……331
ЛЯМКИНА ВИКТОРИЯ АЛЕКСАНДРОВНА, НАБИЕВА АНОРГУЛ МУХАМЕТКАЗИЕВНА
Механизмы трансформации и управления предпринимательским университетом в условиях цифровой экономики……338
YUSUFALIYEV OLIMJON ABDURAXMONOVICH
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish……347
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH
Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini takomillashtirish istiqbollari……358
KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH
Mavsumiy moliyaviy siklni identifikatsiyalash va moliyaviy barqarorlikning mavsumiy tuzatilgan ko‘rsatkichlari (mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxona misolida)……365
QODIROV ZOHIDJON ERALIEVICH
Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mohiyati va tamoyillari……373
ZAFAR QODIROV ABDIVAXOBOVICH
Long-term asset valuation and accounting in Uzbekistan: a comparative analysis of national accounting standards……381
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
AQSH va Yevropa ittifoqi mamlakatlari organik meva-sabzavotlar sertifikatlaridagi farqlar……389
KUBAYEV DJASUR ABDUMUMINOVICH
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari……395
IBODILLAYEV HABIBULLA ABDULLAYEVICH
Madaniy meros obyektlarida turizm tadbirkorligini rivojlantirish orqali aholi bandligini ta’minlash yo‘llari……401
SHAVQIDINOVA DILNAVOZ
IFOAM – organics international: organik standartlar, sertifikatlash, organik bozor va siyosat bo‘yicha statistik tahlili……407
MAYLIYEVA SADOQAT SAFAYOZOVNA
Mintaqada tadbirkorlik salohiyatidan samarali foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari (Xorazm viloyati misolida)……413
SHIRINOV UCHQUN ABDUXALILOVICH
MHXS talablari asosida tashqi segmentar hisobotni shakllantirish metodikasi..421
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlash va infratuzilma o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish……430
SA’DULLAYEVA SAYYORA NASILLO QIZI
Neft-gaz sanoati korxonalarida moddiy xarajatlarning kompleks tahlili……439
ABDINAZAROV XUSAN SHAYMANOVICH, NORQOBILOVA FERUZA ABDUXOMIDOVNA
Klasterlashni rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlari……447

SATTAROV SHUXRAT XASANOVICH
O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanishi va diversifikatsiya tendensiyalari.....458
KAMALKARIEVA NILUFAR XALIKBEKOVNA
Qurilish materiallari korxonalarida yangi mahsulotlarni o‘zlashtirish va sifatni oshirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....467
СЕЙТНАЗАРОВ БАХАДИР МУРАТБАЕВИЧ
Экономическая оценка устойчивого развития аграрного сектора в условиях дефицита водных ресурсов (на примере Республики Каракалпакстан).....475
TURDIYEV ULUG‘BEK QAYUMOVICH
Sanoat o‘sishining uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash.....484
OBLOQULOV ABDURAUF OLIMJON O‘G‘LI
Institutsional iqtisodiyot va iqtisodiy o‘sish: rasmiy va norasmiy institutlarning roli.....493
JUMANAZAROV KODIRJON SALYAYEVICH
Sanoat korxonalarida raqamli strategiyani shakllantirishning metodologik yondashuvlari.....501
NARMAMATOV IXTIYAR BAXTIYAROVICH, SHERMATOVA NARGIZA ZAFAR QIZI
Zamonaviy bozor sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash strategiyalari.....512
ALIYEV AZIM TOLIB O‘G‘LI
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini boshqarish usullari va uslublarini takomillashtirish: nazariy-amaliy tahlil va modellashtirish.....518
ABDULLAYEVA AZIZA MURAT QIZI
Ipoteka kreditlashning nazariy asoslari va xorijiy modellari: AQSH, Germaniya, Qozog‘iston va Malayziya tajribasi.....528
YUNUSOV BEGENCH MAVLANBERDIEVICH, MINASIPOV BURXAN BAXTIYOROVICH
Suv xo‘jaligi infratuzilmasidan samarali foydalanish — iqtisodiy barqarorlikning muhim omili.....539
АЙТБАЕВА ГУЛЬЗАДА КУАНЫШБАЕВНА
Эффективные механизмы государственно-частного партнерства в сфере услуг.....546
SADIQOV ZAFARBEK ADILBEKOVICH
Banklarda likvidlik ko‘rsatkichlarini buxgalteriya hisobi ma’lumotlari asosida tahlil qilish.....554
ODILOVA DILNOZA BARNAYEVNA
Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishda intellektual kapitalning ko‘p omilli ta’sir mexanizmini takomillashtirish.....563
IBODULLAYEV DOSTON SOBIRJON O‘G‘LI, DJURAYEV BEKZOD BEKMATOVICH
Sutchilik fermer xo‘jaliklarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish va ozuqa bazasini rivojlantirish istiqbollari.....574
QULMATOV CHORI ANOROVICH
Korxonalar moliyasini nazorat qilishning uslubiy asoslari.....582
YAKUPOVA AYZADA NIZAMATDINOVNA
Agrar sohada barqaror rivojlanish mexanizmlarining xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish.....590
XUDAYBERGANOV ZOXIDJON DJURAKULOVICH
Xizmat sohasida raqobatbardoshlik nazariyalari evolyutsiyasi va ularning raqamli iqtisodiyotdagi talqini.....602
XONTO‘RAYEV IBROXIM ABDIKAMOL O‘G‘LI
Oliy ta’limda sun’iy intellekt asosidagi intellektual axborot tizimlaridan foydalanish.....613

ATANIYAZOVA MAKSUDA BALTABAYEVNA
Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar davrida davlat-xususiy sheriklikning mohiyati.....622
KARIMOV JAMSHID NIZOMIDDIN O‘G‘LI
Mamlakatimiz kichik sanoat zonalarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari.....633
JUMABOYEV DILMUROD ABDIFATTO O‘G‘LI
Quyosh va shamol elektr stansiyalari samaradorligini uch qatlamda baholash.....641
BO‘RIBAYEVA QUNDIZ MURATBAYEVNA
O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklari mahsulotlari hajmini prognozlash: TREND modeli yondashuvi.....649
ATANIYAZOVA MAKSUDA BALTABAYEVNA
Davlat iqtisodiyotining rivojlanish evolyutsiyasida davlat-xususiy sheriklikning o‘rni va ahamiyati.....657
КЕНДЖАЕВА ДИЛДОРА ХУДАЙБЕРГАНОВНА
Объяснимый искусственный интеллект (XAI): обеспечение прозрачности и доверия пользователей в образовательных решениях — концептуальная модель.....666
IBRAGIMOV SIROJIDDIN BAXODIROVICH
Davlat ishtirokidagi real sektor korxonalarining moliyaviy holatini yuksaltirishga salbiy ta’sir etuvchi omillar, ularni bartaraf etish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlari.....676
AHMEDOV SHOHJAHON
ROPO (onlayn o‘rganib, oflayn xarid qilish) effektini hisobga olgan chakana savdo marketing strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslari.....684
ЖУМАНИЯЗОВА ДУРДОНА
Юқори тартибли операторли тенгламалар ечимларининг умумлаштирилган ХАРТОГС қаторларига ёйилмаси.....694
ISAHANOV MUSLIMJON MARIFJON O‘G‘LI
Tuproq unumdorligini oshirishni iqtisodiy rag‘batlantirishda agroekologik to‘lovlar va eko-sxemalarning ahamiyati: Yevropa ittifoqi tajribasi.....705
DEXKANOVA SHAXLOXON SAGDIYEVNA
Sabzavotchilikda biologik aktivlarni baholash va moliyaviy natijani shakllantirishni 41-son BHXS ga muvofiq takomillashtirish.....710
КАДЫРОВ АБДУКАДЫР АМАНОВИЧ
Обеспечение экономической безопасности системы корпоративного управления акционерных компаний Республики Узбекистан.....715
XUDAYAROV OYBEK ODILOVICH
Tijorat banklari biznes modellarini transformatsiya qilishda raqamli bank xizmatlarining o‘rni.....724
XUJANOV ELBEK
Oliy ta’limda LMS asosida talabalar davomati va o‘zlashtirishini monitoring qilish: amaliy yondashuv.....731
MUXAMMADSIDIQOV OTABEK DILSHODBEK O‘G‘LI
Kichik biznesda inqiroz xavfini aniqlashning moliyaviy diagnostika usullari.....740
KADIROV SAXOBIDDIN SHAROFOVICH
Investitsiyalar hisobida xalqaro standartlardan foydalanish.....748
ISAKHANOV MUSLIMJON MARIFJON UGLI
Mechanisms for economic incentives for cultivating cover crops to increase soil fertility: US experience.....754

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

UO‘K: 334.012.64:332.1

MAMLAKATIMIZ KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

KARIMOV JAMSHID NIZOMIDDIN O‘G‘LI
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
“Moliyaviy boshqaruv va axborot texnologiyalari” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: jamshidkarimov036@gmail.com
ORCID: 0009-0001-0816-5155

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda kichik sanoat zonalarini (KSZ) tashkil etish va rivojlantirishga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar hamda ular faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar tahlil qilingan. Tadqiqotda statistik, qiyosiy va normativ-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Natijalar respublikada 396 ta KSZda 1144 ta kichik biznes subyekti faoliyat yuritayotganini, KSZlardagi ish o‘rinlari soni 2020-yildagi 16,5 mingtadan 2025-yilda 40,9 mingtaga yetganini ko‘rsatdi. KSZ rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tashqi (tabiiy-iqlim, siyosiy, ijtimoiy, davlat tomonidan tartibga solish, resurs va bozor) va ichki (raqobat, kooperatsiya va innovatsion aloqalar) guruhlarga ajratildi. Xorij tajribasi asosida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini o‘z vaqtida barpo etish, ijara to‘lovlarini hududlar bo‘yicha tabaqalashtirish va soliq imtiyozlarini faoliyat turlari bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: kichik sanoat zonalari, ichki omillar, tashqi omillar, rivojlanish, tadbirkorlik, sanoat, investitsiya, infratuzilma, lizing xizmati, raqobat, kichik biznes.

Аннотация. В статье анализируются внутренние и внешние факторы, влияющие на создание и развитие малых промышленных зон (МПЗ) в Узбекистане, а также нормативно-правовые основы их деятельности. Использованы методы статистического, сравнительного и нормативно-правового анализа. Результаты показали, что в республике действуют 396 МПЗ, в которых работают 1144 субъекта малого бизнеса, а число рабочих мест в МПЗ выросло с 16,5 тыс. в 2020 году до 40,9 тыс. в 2025 году. Факторы развития МПЗ сгруппированы на внешние (природно-климатические, политические, социальные, государственное регулирование, ресурсные и рыночные) и внутренние (конкурентные, кооперационные и инновационные связи). С учётом зарубежного опыта предложено своевременно создавать инженерно-коммуникационную инфраструктуру, дифференцировать арендную плату по регионам и пересмотреть налоговые льготы по видам деятельности.
Ключевые слова: малые промышленные зоны, внутренние факторы, внешние факторы, развитие, промышленность, предпринимательство, инвестиции, инфраструктура, лизинговые услуги, конкуренция, малый бизнес.

Abstract. The article analyzes the internal and external factors affecting the establishment and development of small industrial zones (SIZs) in Uzbekistan, as well as the legal framework governing their operation. Statistical, comparative and legal analysis methods were applied. The results show that 396 SIZs operate in the country, hosting 1,144 small business entities, and that the number of jobs in SIZs rose from 16.5 thousand in 2020 to 40.9 thousand in 2025. The factors of SIZ development are grouped into external (natural and climatic, political, social, state regulation, resource and market) and internal (competitive, cooperative and innovation linkages) factors. Drawing on foreign experience, the paper proposes timely construction of engineering and communication infrastructure, regional differentiation of rental payments and revision of tax incentives by type of activity.
Keywords: small industrial zones, internal factors, external factors, development, entrepreneurship, industry, investment, infrastructure, leasing services, competition, small business.

KIRISH

Hozirgi vaqtda kichik biznesni rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali yo‘llaridan biri bo‘lib kichik sanoat zonalari (KSZ)

hisoblanadi. Kichik sanoat zonalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 31-dekabrdagi «Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi 378-son qaroriga ko‘ra, davlat mulki obyektlarining foydalanilmayotgan hududlari va bo‘sh ishlab chiqarish maydonlari negizida tashkil etilishi ko‘rsatib o‘tilgan [10]. Ayniqsa, hududlarda ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlashda kichik sanoat zonalari muhim iqtisodiy vositalardan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda ham kichik sanoat zonalarining hududiy ishlab chiqarish, investitsiyalar, bandlik va mahalliy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli alohida ta’kidlanadi [1; 3].

Kichik sanoat zonalari hududlarni rivojlantirishga katta imkoniyatlar yaratadi. Xususan, sanoat ishlab chiqarishni jadallashtiradi, hududlarni tadbirkorlik uchun investitsion jozibadorligini oshiradi, yangi investitsiya va yangi texnologiyalarni jalb qilish, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish va ularning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib beradi, jamiyat uchun yuk bo‘lib yotgan bo‘sh, foydalanilmayotgan maydonlardan real iqtisodiy sektorni rivojlantirish orqali ulardan samarali foydalanishga, aholi uchun ish joylarini yaratishga hamda yangi raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga olib keladi. Shu sababli KSZlarni barpo etish va rivojlantirishda muhim axborot bazasi bo‘lib xizmat qiladigan omillarni aniqlash va ularning ta’sirini o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va o‘rta biznesni hududiy ishlab chiqarish zonalari orqali rivojlantirish masalasi xorijiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. A. Ayranci va E.Ayranci Turkiyaning Beylikdüzü uyushgan sanoat zonasi misolida xususiy tadbirkorlarning o‘z faoliyatidan qoniqish omillarini tadqiq etgan [1]. A. Celik va T. Akgemici tadbirkorlik madaniyati va kichik-o‘rta korxonalar rivoji o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritgan [2].

D. Smallbone va hammualliflari o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida kichik-o‘rta korxonalarning xalqarolashuvi va rivojlanishini qiyosiy tahlil qilgan [3]. L.Stevenson Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida xususiy sektor va tadbirkorlikni rivojlantirish siyosatini o‘rgangan [4]. Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining tadqiqotida esa Ispaniyaning iqtisodiy rivojlanish tajribasi tahlil qilingan [5].

Ushbu tadqiqotlar kichik va o‘rta biznes rivoji infratuzilma, institutsional muhit va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Biroq O‘zbekiston kichik sanoat zonalari faoliyatiga ta’sir etuvchi omillarni tizimli tasniflash va xorij tajribasini milliy sharoitga moslashtirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik, qiyosiy va normativ-huquqiy tahlil, guruhlash va tasniflash usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari [10–12], rasmiy statistik ma’lumotlar [6; 7; 9] hamda Jahon bankining “Biznes yuritish” hisoboti ma’lumotlari [8] tashkil etdi. KSZlarga kiritilgan investitsiyalar va yaratilgan ish o‘rinlari 2020–2025-yillar kesimida dinamik tahlil qilindi, KSZ rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar esa tashqi va ichki guruhlarga ajratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF-41-son “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida kichik sanoat zonalarining hududlarini maqbullashtirish, ularning faoliyatini samarali tashkil etish va sanoat zonalaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari belgilangan [11]. Farmonga kichik sanoat zonalari bo‘yicha 116,9 gektar hududga oid ro‘yxatlar ham kiritilgan. Hozirda respublikamizning barcha hududlarida 396 ta KSZ faoliyat yuritmoqda, ularda 1144 ta kichik biznes subyekti faoliyat ko‘rsatmoqda. KSZlarga kiritilgan investitsiyalar 1325,9 mlrd so‘m va 110,15 mln AQSH dollarini tashkil etadi, ularda 43 887 nafarga yaqin xodim ishlaydi [6; 7]. KSZlarga kiritilgan investitsiyalar va yaratilgan ish o‘rinlari dinamikasi 1-jadval va 1-rasmda keltirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda kichik sanoat zonalariga kiritilgan investitsiyalar va ish o‘rinlari dinamikasi (2020–2025-yillar)

Yil	Investitsiyalar, mlrd so‘m	Ish o‘rinlari, nafar
2020	304,7	16 485
2021	219,3	18 010
2022	1 663,6	23 716
2023	1 038,6	26 292
2024	2 139,7	35 881
2025	1 325,6	40 891

Manba: rasmiy statistik ma’lumotlar [7] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadval va 1-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2020–2025-yillarda KSZlardagi ish o‘rinlari soni 16 485 tadan 40 891 taga, ya’ni qariyb 2,5 baravarga oshgan. Investitsiyalar hajmi esa yillar bo‘yicha notekis o‘zgargan: eng yuqori ko‘rsatkich 2024-yilda (2 139,7 mlrd so‘m), eng past ko‘rsatkich 2021-yilda (219,3 mlrd so‘m) qayd etilgan.

Kichik sanoat zonalari rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar.

Omillar tizimi ichki va tashqi omillarga bo‘linadi. Atrof-muhit va jamiyat tomonidan sanoat kompleksini barpo etishga ta’sir qiluvchilar tashqi omil sifatida qaraladi. Tashqi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

– tabiiy-iqlim (iqlim o‘zgarishlari, geografik joylashuv, ekologik talablar, tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlar) omillari;


– siyosiy (geosiyosiy holat, siyosiy barqarorlik, millatlararo totuvlik, terrorizm) omillar;

– ijtimoiy (ijtimoiy holat, aholining bandlik darajasi, demografik holat, aholining sotib olish qobiliyati, aholi sog‘lomligi) omillari;

– davlat tomonidan tartibga solish omili (pul-kredit, budjet-soliq, davlatning bojxona siyosati, monopoliyaga qarshi siyosati, hududiy iqtisodiy siyosati, davlat tomonidan kichik biznes va iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash darajasi, faoliyati turlarini litsenziyalash va mahsulotni sertifikatsiyalash, ijtimoiy va milliy xavfsizlikni ta’minlashni amalga oshirish talablari bajarilishini nazorat qilish);

– resurs omillari (kerakli mehnat va moddiy resurslarni jalb qilish imkoniyati);

– bozor omillari (raqobatchilar va erkin raqobat muhitining mavjudligi, mahalliy iste’molchilarning mahsulotga talabi, umuman, shu mahsulotga bozor talabining mavjudligi).



Manba: 1-jadval ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-rasm. KSZlarga kiritilgan investitsiyalar va ish o‘rinlari dinamikasi, 2020–2025-yillar

Tizimni tashkil etuvchi ichki omillarga quyidagilarni kiritish mumkin, bu omillar KSZda joylashgan korxonalarning bir-biri bilan o‘zaro iqtisodiy munosabatda bo‘lishini bildiradi:

– raqobatlashuv bo‘yicha aloqalar, sanoat zonasi tarkibidagi korxonalar o‘rtasidagi va shu bilan birga boshqa korxonalar bilan bo‘ladigan raqobat darajasi;

– kooperatsion aloqalar, ya’ni sanoat zonasi tarkibidagi kichik biznes subyektlari o‘rtasidagi hamda KSZdan tashqaridagi korxonalar bilan ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha aloqalar;

– innovatsion aloqalar, ya'ni korxonalarning ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalari bilan innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish va tarqatish bo'yicha aloqalari;

– malakali kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari bilan aloqalar.

Kichik sanoat zonalari faoliyatining normativ-huquqiy asoslari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonida "Kichik sanoat zonalari to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish, kichik sanoat zonalarini tashkil etish va boshqarish mezonlarini belgilash, shuningdek, ulardagi yer va bino-inshootlardan foydalanish masalalarini huquqiy jihatdan tartibga solish vazifalari belgilangan [12]. Erkin iqtisodiy zonalar va KSZlar faoliyatini tartibga soluvchi avvalgi me'yoriy hujjatlarda esa quyidagilar nazarda tutilgan:

– O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari hududlarida loyihalarni moliyalashtirayotgan barcha tijorat banklariga, tasdiqlangan kvotalar doirasida, kredit liniyalari ochilishini ta'minlashi;

– ma'muriy kengashlarga erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalari tashkil etilgan barcha hududlardagi yer uchastkalarini, shu jumladan, davlat mulki bo'lgan faoliyat yuritmayotgan bo'sh obyektlar va bo'sh yer maydonlarini tasarruf etish huquqi berilishi;

– erkin iqtisodiy zona va kichik sanoat zonasidagi ishlab chiqarish quvvatlari, birinchi navbatda, tortib kelingan muhandislik infratuzilmasiga ega bo'lgan hududlarda va faoliyat ko'rsatmayotgan bo'sh binolar, inshootlar hamda qurib bitkazilmagan obyektlar bazasida joylashtirilishi;

– 2018-yilning 1-martidan boshlab investorlar erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari direksiyalariga axborot tizimlarini qo'llagan holda interfaol shaklda investitsiya buyurtmanomalarini taqdim etishlari;

– investitsiya kiritish to'g'risidagi bitimlarda nazarda tutilgan investitsiya loyihasi parametrlarini bajarish bo'yicha belgilangan majburiyatlarning xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilmasligi tadbirkorlik subyektini erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan belgilangan tartibda mahrum etish uchun asos hisoblanishi;

– tadbirkorni erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum qilish uning erkin iqtisodiy zona hududidagi faoliyatini, shuningdek erkin iqtisodiy zona ishtirokchisiga mulk egaligi huquqi bilan tegishli bo'lgan boshqa obyektlarga nisbatan huquqlari to'xtatilishiga olib kelmasligi va bunda ushbu tadbirkorlik subyekti EIZ ishtirokchilari uchun berilgan imtiyozlar va afzalliklardan foydalanmasligi;

– erkin iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomidan mahrum bo'lgan tadbirkorlik subyektidan, zarur hollarda, yer uchastkasini olib qo'yish qonunchilikka hamda investor bilan tuzilgan investitsiya kiritish to'g'risidagi bitim yoki boshqa shartnomalarga muvofiq amalga oshirilishi.

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

Shuningdek, soliq qonunchiligi o‘zgarganda, KSZlarning ishtirokchilari tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha amal qiladigan norma va qoidalarni qo‘llash tartibi va 2017-yilning 1-noyabridan boshlab erkin iqtisodiy zonalarning ishtirokchilari tadbirkorlik subyektlari tomonidan tuziladigan import shartnomalarini ekspertizadan o‘tkazish talabi bekor qilinishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asosiy o‘rinni egallaydi. Ma’lumki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanib borayotgan va tez o‘zgaruvchan bozor iqtisodiyoti talablariga tezda moslashuvchan hisoblanadi.

Jahon bankining “Biznes yuritish” hisobotida biznes yuritish uchun qulay sharoitlar bo‘yicha mamlakatlar reytingi taqdim etilgan. Reytingni tuzishda kichik va o‘rta biznes korxonalarining tashkil etilishidan tugatilishigacha bo‘lgan davrda ularning faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardagi o‘zgarishlar baholangan. Ushbu hisobotda O‘zbekiston 190 ta mamlakat ichida 76-o‘rinni egallagan (2-jadval) [8]. Ta’kidlash joizki, Jahon banki 2021-yildan e’tiboran mazkur hisobotni nashr etmaydi, shu sababli keltirilgan ko‘rsatkichlar uning so‘nggi nashrlariga tegishli.

2-jadval

“Biznes yuritish” reytingida ayrim mamlakatlarning o‘rni

O‘rin	Mamlakat	Umumiy ball	Ballning o‘zgarishi
1	Yangi Zelandiya	87,15	+0,12
2	Singapur	85,76	+0,52
3	Daniya	84,91	+0,31
4	Gonkong	84,48	+0,26
5	Koreya	83,97	+0,14
6	Gruziya	83,61	+0,76
31	Rossiya	72,84	+0,83
76	O‘zbekiston	68,15	+1,24
77	Hindiston	67,89	+5,21
126	Tojikiston	58,36	+0,17
190	Somali	21,47	+0,11

Manba: Jahon banki “Doing Business” ma’lumotlari [8].

Shuni alohida qayd etish kerakki, «yangi biznesni qo‘llab-quvvatlash» deb ataladigan mezon bo‘yicha mamlakatimiz ayni paytda jahonda 12-o‘rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta’minlash bo‘yicha 41-o‘rinni, iqtisodiy nochor korxonalarga nisbatan qo‘llanadigan bankrotlik tizimining samaradorligi bo‘yicha 91-o‘rinni egallab turibdi.

“Biznes yuritish” hisobotida baholangan o‘n sohadan uchtasi: jumladan, xalqaro savdo, minoritar investorlarni himoya qilish va soliqqa tortishda yaxshilanishga erishgan. Jumladan, o‘tgan yilga nisbatan savdo aloqalari, eksport import operatsiyalari hamda chegaralararo savdo (Trading across Borders) yo‘nalishida – 5,5 foizga; soliq ma’muriyatchiligida va sohadagi tub o‘zgarishlar

2026-yil, oktabr.
№10-son.
ISSN: 3060-5245

hamda soliq to‘lovchilarda soliq madaniyatining oshishi natijasida soliqlarning to‘lanishi (Paying Taxes) yo‘nalishida 2,2 foizga; mamlakatga investitsiyalar kiritish va investorlarni qo‘llab-quvvatlash borasida keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilish natijasida investorlarni himoya qilish (Protecting Minority Investors) yo‘nalishida – 1,7 foiz o‘sib, boshqa yo‘nalishlarga nisbatan yuqori ko‘rsatkich qayd etilgan. Jahon bankining ma’ruzasida O‘zbekiston keyingi yillarda tadbirkorlik faoliyati uchun ishbilarmonlik muhitini yaxshilash sohasida eng yaxshi natijalarga erishgan dunyodagi o‘nta davlat qatoridan joy olgani qayd etilgan. Ana shu yo‘nalishdagi islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yildagi 31 foizdan bugungi kunda 59,4 foizga yoki 1,9 barobarga o‘sgan. Shu bilan birga, jami sanoat mahsulotlarining 37,4 foizni, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 98 foizi ishlab chiqarilmoqda [7; 9]. Ish bilan band jami aholining 76,3 foizi mazkur sohada mehnat qiladi.

Olingan natijalar KSZlar hududlarda bandlikni ta’minlashning samarali vositasiga aylanganini ko‘rsatadi: ish o‘rinlari soni olti yil davomida izchil o‘sgan. Biroq investitsiyalar hajmining yillar bo‘yicha keskin tebranishi KSZlarni moliyalashtirishning barqaror mexanizmlari hali to‘liq shakllanmaganidan dalolat beradi.

Xorij tajribasi ham kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda institutsional muhit va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning muhimligini ko‘rsatadi [3; 4]. Shu nuqtai nazardan, tashqi omillar ichida davlat tomonidan tartibga solish va resurs omillari, ichki omillar ichida esa kooperatsion va innovatsion aloqalar KSZ samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida qaralishi lozim. “Kichik sanoat zonalari to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi esa ushbu omillarni yagona huquqiy asosda tartibga solish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, kichik sanoat zonalari O‘zbekiston hududlarida sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda investitsion faollikni oshirishning muhim vositalaridan biridir. Shu sababli ularning faoliyat samaradorligini oshirish mamlakat hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh, sifatli mahsulot ishlab chiqarish, mineral xomashyo va qishloq xo‘jaligi resurslarini chuqur qayta ishlash bo‘yicha yuqori texnologiyali zamonaviy ishlab chiqarishlarni barpo etishga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishda, hududlarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan kompleks hamda samarali foydalanish hamda aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirishda KSZlarning faoliyatini samarali tashkil etishda quyidagilar muhim hisoblanadi:

1. Kichik sanoat zonalarini tashkil etishda muhandislik-kommunikatsiya hamda transport infratuzilmasini qurish bo‘yicha loyihalarning o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlash.

2. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, kichik sanoat zonalarida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlariga ijara to‘lovlarini tabaqalashtirish, iqtisodiy faol bo‘lmagan hududlardagi kichik sanoat zonalarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari asosida respublika budjetidan moliyalashtirish.

3. Kichik sanoat zonalarida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlariga berilayotgan soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha imtiyozlar berish tartibini faoliyat turlari bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ayranci, A. E., & Ayranci, E. (2015). A research on job satisfaction factors of private entrepreneurs: The case of Beylikduzu Organized Industrial Zone. Procedia – Social and Behavioral Sciences, 268–277.

2. Celik, A., & Akgemici, T. (2007). Girişimcilik kültürü ve KOBİ’ler [The culture of entrepreneurship and SMEs]. Ankara: Gazi Publications.

3. Smallbone, D., Piasecki, B., Venesaar, U., Todorov, K., & Labrianidis, L. (1999). Internationalization and SME development in transition economies: An international comparison. Journal of Small Business and Enterprise Development, 5(4), 363–375.

4. Stevenson, L. (2010). Private sector and enterprise development: Fostering growth in the Middle East and North Africa. Ottawa: IDRC.

5. International Bank for Reconstruction and Development. (1967). The economic development of Spain. Baltimore.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. Rasmiy veb-sayt. http://parliament.gov.uz/uz/events/committee/23612/

7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Rasmiy veb-sayt. https://stat.uz; O‘zbekiston milliy axborot agentligi. https://uza.uz/oz/politics

8. World Bank. Doing Business: Data. http://www.doingbusiness.org/data

9. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi. Rasmiy veb-sayt. https://uzlidep.uz/news-of-party/3976

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 31-dekabrdagi 378-son “Kichik sanoat zonalarini barpo etish va ularning faoliyatini tashkil qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. https://lex.uz

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-martdagi PF-41-son “Maxsus iqtisodiy va sanoat zonalari faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz

2026-yil, oktabr. №10-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy